

## FUTBOLCHILARNING NATIJA SAMARADORLIGIGA AUDITORIYA EFFEKTINING PSIXOLOGIK TA'SIRI

**Qudratov Azamat o'g'li**

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti 3-bosqich kursanti*

**Annotatsiya:** Sport tomoshabinlar oldida chiqish qilishni taqozo etadi va bu individual hamda jamoa natijalariga ta'sir qilishi mumkin; bundan tashqari, sport ishqibozlariga hayajon bag'ishlaydi. Musobaqa vaqtida tomoshabinlarning mavjudligi, ularning mulohazalari yoki ularning yo'qligi sport natijasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, olomonning hajmi, zichligi va tajovuzkorligi kabi omillar futboldagi "uy ustunligi"ga olib keluvchi muhim omillardir. Tomoshabinlarning sportchi natijasiga ta'siri ko'plab tadqiqotlarda o'rganilgan, ammo har bir ish nazariyalarni turlicha talqin qilgani bois natijalar ko'pincha qarama-qarshi chiqadi.

**Kalit so'zlar:** auditoriya effekti, ingibitsiya, fasilitatsiya, sportchi shaxsi, qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-psixologik omillar.

Har bir o'yinda sportchilar auditoriyaning bahosiga tushadilar va olomonning his-tuyg'ular ifodasiga duch keladilar. Olomon qo'llab-quvvatlovchi yoki qo'llab-quvvatlamovchi bo'lishi mumkin. Birinchisining xususiyati ijobiy "vibe" uzatish orqali ijrochilarining muvaffaqiyatini istashi; ikkinchisi esa ijrochilarning kutilgan darajada muvaffaqiyat qozonmasligini xohlaydi. Qo'llab-quvvatlash yoki uning yo'qligi "qo'l chalish, hushtakbozlik (booing), kiyim va bannerlar" orqali ifodalanishi mumkin.

Blascovich ta'rifiga ko'ra, "...ijtimoiy fasilitatsiya boshqalarning (hamkorlar yoki, ko'proq, kuzatuvchilar/tomoshaabinlar) mavjudligi keltirib chiqaradigan ijroning yaxshilanishi yoki yomonlashishi." Bu psixologik hodisa ilk bor Zajonc (1965) tomonidan ilgari surilib, boshqalar "shunchaki" borligi ijrochining umumiy qo'zg'alishini oshiradi va ustun (dominant) javoblarni kuchaytiradi, deb uqtirilgan. COVID-19 pandemiyasi "shunchaki" ishtirok ham iz qoldirishini yaqqol ko'rsatdi. McCarrick Yevropa ligalarida 2019/2020 yil mavsumining bir qismini muxlislar bilan, yakunini esa muxlislarsiz o'tkazilgan o'yinlar bo'yicha tahlil qilib, muxlislarsiz o'yinlarda uy jamoalarining hujumiy imkoniyatlari sezilarli kamayganini, natijada gol va ochkolar soni pasayganini topdi.

Bundan tashqari, muvozanatli "uy-mehmon" taqvimida uy jamoalari o'yinlarning 50 foizidan ko'prog'ida g'alaba qozonishi ko'p bora qayd etilgan; bu "uy ustunligi" (home field advantage) deyiladi. Masalan, Turkiya Superligasidagi 18 052 o'yin (1987–2017) statistik tahlilida ham shunday natija olingan (Inan, 2018). Bu hodisa ayniqsa kuchlar nisbatan teng bo'lganda yaqqolroq ko'rinadi (Hagger & Chatzisarantis, 2005). Professional ligalarda (Courneya & Carron, 1992; Seçkin, 2006; Seçkin & Pollard, 2008; García va boshq., 2009; Goumas, 2013; Santos, 2019; Inan, 2020) uy jamoasi mehmonlarga nisbatan qulay muhitga ega bo'lishi

ko'p marta ko'rsatilgan. Bu ta'sir faqat jamoaviy sportlarga xos emas (Jones, 2013; Leitzelar va boshq., 2016; Boudreaux va boshq., 2017; Harb-Wu & Krumer, 2019). Germaniyada U9, U11, U13, U15, U17, U19 yosh guruhlarida ham (U9dan boshq.) uy ustunligi aniqlangan (Staufenbiel va boshq., 2018).

Inanga ko'ra, olomonning qo'llab-quvvatlashi va zichligi futbolda uy ustunligining asosiy o'zgaruvchilaridir. Boshqa tadqiqotlar esa uy ustunligining sababi hanz noaniq, deydi. Henningsen va hammualliflar basketbolchilarda uy olomonidan keladigan ijtimoiy fasilitatsiya yaxshiroq ijroga olib kelishini ko'rsatdi. Wallace va boshq. (2005) esa bunday holatlar futbolchi uchun yordamdan ko'ra ko'proq zarar keltirishi (uy nuqsoni) mumkinligini ta'kidlaydi.

Epting va boshq. (2011) "cheering"ning na ijobiy, na salbiy aniq ta'sirini topmagan, buni boshqa ishlar ham tasdiqlaydi (Salminen, 1993; Baumeister & Steinhilber, 1984). Boshqa qarashda, bir qator mualliflar (Courneya & Carron, 1992; Waters & Lovell, 2002; Smith, 2003; Inan, 2020) ham sportchilar, ham muxlislar ijobiy qo'llab-quvvatlash (cheering) uy jamoasining ijrosini oshirishini tan olishadi. Yana bir ehtimol uy jamoasiga ijobiy qo'llab-quvvatlash mehmon muxlislarining salbiy xatti-harakatlaridan "qalqon" bo'lib xizmat qilishi (Epting va boshq., 2011). Safar bilan bog'liq omillar (masofa, yo'nalish, vaqt zonalarini kesib o'tish) ham Avstraliya ligasida (Goumas, 2014) va Jahon chempionati saralash bosqichlarida (Pollard & Armatas, 2017) uy jamoasi foydasiga ishlashi aniqlangan.

Ota-onalar farzandlarini qo'llab-quvvatlab, o'yinlarga kelib, xursandchilik va dalda berishlari mumkin (Clarke & Harwood, 2014); ammo Palou va hammualliflar (2020) haqoratli izohlar orqali salbiy iz qoldirishi ham mumkinligini aytadi. "Har qanday yo'l bilan g'alaba" mentaliteti sabab ota-onalar tomonidan zo'ravonlik holatlari soni ortmoqda (Baldwin, 2013). Bu ba'zi ota-onalarning sportni "zavq va sog'lom mashg'ulot" sifatida ko'rishdan chekinib, farzandini "investitsiya" sifatida ko'rishga o'tganini anglatadi (Heinzmann, 2016). Ko'pchilik o'smirlar ota-onalari tomoshabin bo'lishidan xursand bo'lsada, paradoks shundaki, ularning borligi tashvish uyg'otishi mumkin (Bois va boshq., 2009). Bu tajovuzkorlikning salbiy xulqlari qichqirish, haddan ziyod jo'shqin "fanat"lik, bahslashish, ayblash, bezovta qilish bilan bog'liq bo'lishi mumkin (Omli & Wiese-Bjornstal, 2011; Dorsch va boshq., 2015; Bean va boshq., 2016). Bunday xulqlar bolalar sportdan kutadigan maqsadlariga zid (Witt & Dangi, 2018); ular ota-onalardan "aqli raso muxlis" bo'lishni xohlashadi (Tamminen va boshq., 2017; Azimi & Tamminen, 2019). Baler orollari (Ispaniya)da U-15 ikkinchi divizioni o'yinlarida ota-onalar xulqi kuzatilganda, izohlarning 57,9% neytral, 21,2% ijobiy, 20,8% salbiy bo'lgani aniqlandi (Palou va boshq., 2019).

Hocking (1982) va Cashmore (2008)ga ko'ra, olomon tarkibi, hajmi va zichligi sportchilarning ijrosiga ta'sir qilishi mumkin. Bu uy ustunligiga hissa qo'shuvchi omillardan hamdir (Kremer & Scully, 1994; Nevill va boshq., 1996; Moskowitz & Wertheim, 2011; Inan, 2020). Biroq Oviatt (2005) topilmalari olomon hajmi

sportchiga sezilarli ta'sir ko'rsatmasligini taklif qiladi. Anderson (2010) futbolchilar bilan o'tkazgan suhbatlarida ko'pchilik stadionda ko'p tomoshabin bo'lishini muhim deb bilishini, bu psixologik ta'sir qilib, ijroni oshirishini bildirgan. Shunday bo'lsa-da, qo'pol xulqli auditoriya sportchilar uchun salbiy muhit yaratishi mumkin. Böheim va boshq. (2019) basketbolda uy jamoasi ijrosi olomon hajmi oshgani sari pasayishini ko'rsatdi. Bundan tashqari, olomon hajmi va zo'ravon xulq o'rtasida ijobiy bog'liqlik ham qayd etilgan (Strang va boshq., 2018; Knapton va boshq., 2018). Maltada Premyer liga klublari (Aquilina, 2017) va terma jamoa ko'pincha Ta' Qali milliy stadionida nisbatan kichik auditoriya oldida o'ynaydi (Azzopardi, 2018).

Strang va boshq. (2018)ga ko'ra, futbol tadbirlarida zo'ravon va antisosial xulqni keltirib chiqaruvchi bir nechta omillar bor: psixologik (adrenalin va "ma'no" izlash), spirtli ichimliklar, sport raqobatlar, ijtimoiy-siyosiy va makoniy omillar, shuningdek jamoa natijalariga munosabat. Stott va hamkorlar (2008) "Kengaytirilgan ijtimoiy identifikatsiya modeli" asosida olomonning xulqi butun guruh sifatida namoyon bo'lishini, a'zolar bir-birining xulqiga ta'sir o'tkazishi va qo'shma harakatlar yuzaga kelishi mumkinligini ko'rsatadi. Ironik tarzda, sportga oid agressiya va zo'ravonlik tadbir tomoshabopligini ham oshirishi mumkin (Jewell va boshq., 2012). "Futbol xuliganligi" ("tomoshabin zo'ravonligi") "futbolda ijtimoiy tashkil etilgan muxlis guruhlarining raqib muxlislarga qarshi yo'naltirilgan raqobat zo'ravonligi" sifatida tariflanadi (Spaaij, 2006, 11-b.). Madensen & Eck (2008, 45-b.) olti eng keng tarqalgan tomoshabin agressiyasi turini sanab o'tadi: og'zaki (haqorat), ishoralar (tahdidli imo-ishoralar), "snaryad" uloqtirish (oziq-ovqat, ichimlik, g'isht, shisha, o'rindiqlik parchalari, telefon va b.), "toshqin" (maydonga bostirib kirish, darvozalarni buzib o'tish, chiqishda bosib ketish xavfi), mulkni vayron qilish va jismoniy xatti-harakatlar (tupirish, tepkilash, turtish, mushtlashish, pichoqlash, otish). Thirer & Rampey (1979, 1048-b.) bunday zo'ravonlik "nohaq hakamlilik, golni bekor qilish yoki o'yinda yuz beradigan zo'ravon harakat" bilan qo'zg'alishi mumkinligini aytadi. Natijada og'ir jarohatlar va hatto o'lim holatlari ham yuz berishi mumkin (Gumusgul & Acet, 2016; Knapton va boshq., 2018).

Auditoriya hajmi, tarkibi va hissiy ifodasi ham sportchining natijasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Olomonning hajmi ortgan sari sportchi ustida ijtimoiy bosim kuchayishini, lekin bu bosim har doim ham salbiy emasligini ko'rsatgan. Futbolchilar bilan olib borgan suhbatlarida ko'pchilik sportchilar katta auditoriyani motivatsion omil sifatida baholaganini, ammo tajovuzkor auditoriya stressni oshirishi mumkinligini aniqlagan. Zamonaviy tadqiqotlar auditoriya ta'sirining fiziologik komponentlarini ham tahlil qiladi.

Sport musobaqalarida ota-onalar ham ijtimoiy auditoriya sifatida alohida o'rin tutadi. Tadqiqotlarda ota-onalar farzandlarini qo'llab-quvvatlash orqali ularning o'ziga ishonchini oshirishi mumkinligi ta'kidlanadi. Ammo ota-onalarning haddan tashqari aralashuvi, tanqidiy yoki haqoratli izohlar bolalarda tashvish, o'ziga ishonchsizlik va psixologik bosimni kuchaytirishini aniqlangan. "Har qanday yo'l

bilan "g'alaba" mentaliteti ayrim hollarda sportni tarbiyaviy vosita emas, iqtisodiy "investitsiya" sifatida ko'rishga olib keladi. O'smir sportchilarda ota-onalar mavjudligi paradoksal holat yaratadi: ular ota-onasining e'tiboridan mamnun bo'lishadi, ammo ayni paytda ularning mavjudligi qo'shimcha stress manbai bo'lishi mumkin. Shu bois "aqlli muxlislik" (rational fandom) madaniyatini shakllantirish zarur.

Auditoriya effekti bilan bog'liq muhim ijtimoiy hodisalardan biri sportdagi zo'ravonlik (hooliganizm). "Kengaytirilgan ijtimoiy identifikatsiya modeli"ga ko'ra, olomon xulqi guruh a'zolari o'rtasidagi o'zaro identifikatsiya kuchi bilan belgilanadi, ya'ni auditoriyaning bir qismi tajovuzkor bo'lsa, boshqalar ham unga qo'shilishi mumkin. Bu esa kollektiv agressiyani keltirib chiqaradi. Futbol xuliganligi ko'pincha "g'alaba uchun bosim", spirtli ichimliklar iste'moli va raqobat kayfiyatining haddan oshishi bilan bog'liq. Bunday holatlarning ko'pi nohaq hakam qarori yoki raqib muxlislarning provokatsiyasi natijasida yuz berishini qayd etadi.

Auditoriya effekti bu ijtimoiy fasilitatsiya va ingibitsiya o'rtasidagi muvozanat natijasidir. U sportchining shaxsiy xususiyatlari, tayyorgarlik darajasi, stressga bardoshlilik va emotsional barqarorligiga qarab o'zgaradi. Ijobiy auditoriya sportchi uchun motivatsion kuch, salbiy auditoriya esa stress manbai bo'lishi mumkin. Shu bois sport psixologiyasida sportchilarda "psixologik immunitet"ni shakllantirish, emotsional o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish, auditoriya ta'siriga tayyorlash treninglarini joriy etish dolzarbdir. Auditoriya effekti sport psixologiyasining markaziy tushunchalaridan biridir. U nafaqat musobaqa natijalarini, balki sportchining psixologik holatini ham belgilaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, tomoshabinlarning hissiy qo'llab-quvvatlashi, olomonning ijobiy energiyasi sportchilarning o'ziga ishonchini, motivatsiyasini va natija samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, tajovuzkor auditoriya, salbiy izohlar yoki haddan tashqari bosim sportchilarning ijrosini pasaytiradi, stressni kuchaytiradi va ba'zan "uy nuqsoni" effektini yuzaga keltiradi. Shunday ekan, sportchilarning psixologik tayyorgarligi tizimida auditoriya ta'siriga moslashuvchanlik, stressga bardoshlilik va ijtimoiy-emosional regulyatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish zarur.

Futbolchi psixologiyasi inson ongi bilan o'yin jarayoni orasidagi murakkab munosabatlarning muhim tarkibiy qismi. Uning tamoyillari maydondagi muvaffaqiyatni belgilaydi: o'yinchi natijadorligini oshiradi, jamoaviy uyg'unlik va barqarorlikni mustahkamlaydi. Har bir uchrashuv alohida voqea, har bir futbolchi alohida qahramon. Bu dinamik olamda psixologiyaning roli beqiyos: maqsad qo'yishdan sahna qo'rquvini yengishgacha, samarali muloqotdan o'zaro ishonchni mustahkamlashgacha psixologik strategiyalar to'ri maydonda "sehr" yaratib, o'yinchilar va jamoalarni g'alabaga yetaklaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Zajonc R. B. Social facilitation. *Science*, 149(3681), 269-274.
2. Blascovich J. A biopsychosocial approach to social facilitation. In: *Social Psychology Quarterly*, 55(2), 144-155.
3. McCarrick D. COVID-19 and the home advantage in European football. *European Sport Management Quarterly*.
4. Inan T. Home advantage in Turkish Super League (1987-2017). *Journal of Sports Sciences*, 36(7), 732-740.
5. Wallace H.M., Baumeister R.F., & Vohs K. D. Audience effects in competitive sports: The home disadvantage. *Psychology of Sport and Exercise*, 6(2), 201–212.
6. Epting L.K., Riggs K.N., Knowles J.D., & Hanky J.J. The impact of cheering on performance and perception in sports. *Journal of Applied Social Psychology*, 41(7), 1790-1805.
7. Stott C., Adang O., Livingstone A., & Schreiber M. Crowd psychology and public order policing: An integrated approach to crowd management. *Policing: An International Journal*, 31(2), 204-220.